

---

## Rishton tumani: Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqaror bo'lishi zarur

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichda davom ettirmoqda. Bu Harakatlar strategiyasi besh yilga mo'ljallangan bo'lib, xalqimiz va davlatimiz hayotida yangi davrni - taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Undan ko'zlangan maqsad bitta - turmushimiz yanada farovon, mamlakatimiz yanada qudratli bo'lishi zarur.

Davlatimiz rahbari taklifi bilan 2017 yil - Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili sifatida nomlandi. Odamlarning murojaatlari bilan ishlashni yaxshilash, dardi-o'yi, orzu-niyatini tinglash maqsadida Prezidentning Xalq qabulxonalari, Virtual qabulxonasi tashkil etildi. Bugun kunda yurtimizda har bir kun inson manfaatini ta'minlash, fuqarolar haq-huquqlarini kafolatli himoya etish, ularga qulay yashash va mehnat sharoitlarini yaratish yo'lidagi sa'y-harakatlar izchillik bilan davom ettirilmogda.

Aynan mamlakatimiz rahbarining ezgu tashabbusi bilan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosini o'rganish, shu hududda yashovchi keng aholi vakillari bilan yuzma-yuz muloqotlar o'tkazish maqsadida qariyb o'n kun davomida Respublika ishchi guruhi tomonidan Rishton tumanida izchil sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. ta'kidlash o'rinliki, mazkur ishchi guruh Rishton tumanidagi mahallalar va oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etishga ko'maklashish uchun tashkil etilgan.

2018 yilning 26-31 yanvar kunlari Rishton tumanidagi mahallalar va oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish, aniqlangan muammolarni bartaraf etishga ko'maklashish bo'yicha tashkil etilgan Respublika ishchi guruhi tomonidan 68 ta mahalla fuqarolar yig'inlari o'rganilib, 11 ming 946 ta xonadonga uyma-uy kirib chiqildi.

O'rganish jarayonida turli yo'nalishlarda jami qariyb 6,5 mingta muammolar aniqlandi. Xususan:

- oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit bo'yicha 45 ta;
- tabiiy gaz va suyultirilgan gaz balloni bilan ta'minlash bo'yicha 471 ta;
- elektr energiyasi ta'minoti bo'yicha 164 ta;
- ichimlik suvi ta'minoti bo'yicha 225 ta;
- yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq 169 ta;
- ko'mir ta'minoti bo'yicha 426 ta;
- maktabgacha ta'lim tizimi bilan bog'liq 60 ta;
- xalq ta'limi tizimi bilan bog'liq 47 ta;
- sog'liqni saqlash tizimi bilan bog'liq 1026 ta;
- ishga joylashtirish bo'yicha 1390 ta;
- bank krediti bilan bog'liq 384 ta;
- huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid 20 ta;
- tadbirkorlik bo'yicha 58 ta;
- uy-joy bilan ta'minlash maqsadida 400 ta;
- moddiy-yordam bo'yicha 701 ta;
- boshqa masalalar bilan bog'liq 910 ta muammolar aniqlangan.

---

Ayni jarayonda qolgan 4993 ta masalalar tegishli viloyat boshqarma va tuman tashkilotlariga o'rnatilgan tartibda hal qilish uchun etkazilib, o'tgan 6 kun mobaynida 2734 ta (*umumiy murojaatlarning 42 foizi*) muammolar hal etilishi ta'minlandi.

2018-02-05 15:07:22